

16«11»2022 yil.

200-10-138-MT/2022-son

SHartnoma № 25

Toshkent sh.

16.11.2022y

Bundan buyon "BUYURTMACHI" deb ataluvchi Zangiota tumani maktabgacha ta'lim bo'limi nomidan Ustav asosida faoliyat olib boruvchi v.v.b X.Ergashev bir tomondan va bundan buyon "ETKAZIB BERUVCHI" deb ataluvchi OOO «UNION-Y-A» MCHJ nomidan Ustav asosida faoliyat olib boruvchi YU.Xodjiyev ushbu kontraktni quyidagilar to'g'risida tuzdilar.2022-2023yil uchun zaxira uchun oziq ovqat maxsulotlariga shartnoma qilindi.

1. KONTRAKT PREDMETI

1.1. Ushbu kontraktga asosan Buyurtmachi tovarni qabul qiladi va to'laydi, Etkazib beruvchi esa quyidagi shartlarga muvofiq etkazib beradi:

№	Tovarlarning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Kontraktning umumiy qiymati (bitim summasi)
1	Sabzi	kg	12 000	4450	53 400 000
	Jami				53 400 000

1.2. Kontraktning umumiy 53 400 000 (Ellik uch million to'rt yuz ming) so'm
SHundan KKS 6 965 217.39 (Olti million to'qqiz yuz oltmush besh ming ikki yuz o'n yeti so'm 39 tiyin)

2. ETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBLAR SHARTLARI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur kontraktni g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 kalendar kuni ichida qonunchilikka muvofiq, kontrakt umumiy summasidan 30 % miqdorida oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70 % ni tovarni olgandan so'ng 30 kalendar kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi.

2.2. "Etkazib beruvchi" avans mablag'lari Etkazib beruvchining tegishli hisobvarag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 3 kalendar kuni ichida tovarni etkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. "Etkazib beruvchi" amaldagi GOST ga muvofiq tovarni etkazib berishi shart.

2.4. "Buyurtmachi" tovarlarni qabul qilishda "Etkazib beruvchi" ishtirokida olinayotgan tovarlarning to'liqligini va sifatini talablarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur kontrakt bilan boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar Etkazib beruvchi xisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Buyurtmachining roziligiga ko'ra tovar muddatidan oldin etkazib berilishi mumkin.

2.7. Etkazib berilgan tovar bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va unda etkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

2.8. Mazkur kontrakda ko'zda tutilgan tovarlarni etkazib berish, mazkur kontraktga muvofiq amalga oshiriladi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Buyurtmachining huquqlari:

Etkazib beruvchidan Kontraktni bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Buyurtmachi hisobidan tovarlar tashib keltirilganda, Etkazib beruvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish, agar mazkur kontraktning shartlaridja boshqa hollar belgilanmagan bo'lsa;

Etkazib beruvchidan joylashtirilgan buyurtmanomaga ko'ra mazkur kontraktga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo'yicha tovarlarni etkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar etkazib berilganda o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- tegishli sifatdagi shunga o'xshash tovar bilan almashtirib berish;
- kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish;

- Etkazib beruvchidan mazkur kontrakt shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida etkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

- mazkur kontraktga muvofiq o'zining joylashtirgan buyurtmanomasi bo'yicha etkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;
- tovarlarning qiymatini mazkur kontraktga belgilangan narxda va muddatda to'lash.

3.3. Etkazib beruvchi quyidagi xuquqlarga ega:

- "Buyurtmachidan" oldindan to'lov va etkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda va hajmlarda amalga oshirishni talab qilish;

3.4. Etkazib beruvchining majburiyatlari:

- Buyurtmachiga tovarlarni mazkur kontraktga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda etkazib berish;
- agar tovarlarni etkazib berish jarayonida Etkazib beruvchi kontrakt shartlari va me'yorlardan va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo'q qo'ygan hollarda Buyurtmachining talabi bo'yicha 10- kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur kontrakt belgilangan tartibda mazkur kontrakt shartlari va talablari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Buyurtmachi:

- Taqdim etilgan hujjatlarning ishonchiligi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi;

4.2. Tovarlarini tanlab olmaslik, shuningdek etkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrd) ularni etkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi etkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, etkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.3. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi mahsulot etkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Etkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi etkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.4. Etkazib beruvchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni etkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha etkazib beruvchi buyurtmanomalarini shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- tuzilgan kontrakt shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.5. Agar etkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, etkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar etkazib berganlik uchun jarima etkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.6. Tovarlarini etkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq etkazib berilmagan, tovar etkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni

etkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq etkazib bermaslik, oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.7. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni etkazib berganlik uchun etkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlarni qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin etkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi etkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralari ni ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar sudga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi iqtisodiy sudga ko'rib chiqiladi.

6. FORS-MAJOR

6.1. Ushbu shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar natijasida vujudga qelganda tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaslikdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar.

6.2 Engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlariga tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar kiradi.

6.3 SHartnoma tomonlaridan qaysi biri uchun majburiyatlarni engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari sababli bajarmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi tomonga bu xaqda 10 kun ichida ushbu holatlar harakati sababini dalillar bilan taqdim etishi lozim.

6.4 SHartnomaga asosan majburiyatlarni ijro qilish muddati ushbu engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar davom etish muddatiga qadar uzaytiriladi. Agar engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) ta'siri 60 kundan ortiqroq davom qilsa, tomonlar tashabbusiga binoan shartnoma bekor qilinishi mumkin.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

8. KONTRAKTNING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur kontrakt g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrighacha amal qiladi.

8.2. Kontraktning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Kontraktning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

9. Korrupsiyaga qarshi kelishuv

9.1 SHartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi amaldagi qonunlarga rioya etilishini taminlaydi, yani ular, ularning xodimlari, kafillangan shaxslar, benifitsiyalari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

9.2 Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni (78 150 26 03) orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

9.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar barataraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralarni korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.


9.4 Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga etkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlari ni buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlarni qoplashni talab qilishiga xaqli emas.

10. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

Etkazib beruvchi
<p>Tashkilot nomi: "UNION-Y-A"</p> <p>Manzil: Uchtepa tumani, Toshkent xalqa avtomobil yo'liko'chasi</p> <p>Telefon: 1) 98-337-07-66</p> <p>STIR kodi: 308 880 371</p> <p>OKED: 47190</p> <p>Bank: Xalq bank Zangiota filiali,</p> <p>X/r 2020 0000 6054 4100 1001</p> <p>Rahbar: YU.Xodjiyev (imzo)</p>

Buyurtmachi
<p>"Zangiota tumani" MTB</p> <p>Toshkent viloyati Zangiota tum.</p> <p>Eshonguzar KFY</p> <p>400522860272377091100251035</p> <p>100022860272377091100251036</p> <p>X/r: 2340200300100001010</p> <p>Bank Tosh shax Markaziy Bank XKKM</p> <p>MFO: 00014 INN: 305157536</p> <p>Rahbar v.v.b: _____ X.Ergashev</p>



	<p>Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.</p>	
	Imzolovchi F.I.SH.	XUSAN ERGASHEV SABIROVICH
	Imzolangan sana	16.11.2022 12:12
	Hujjat kodi	HK4526010357
	Hulosa kodi	NT1304233553

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 176689 на приобретение Сабзи захира

Способ проведения электронный

Дата 11.11.2022

Время рассмотрения 11.11.2022 13:12

Закупочная комиссия Зангиота тумани Мактабгача таълим булими (Распорядитель), (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	TOSHDJANOV BEKMUROD ASANOVICH	Эксплуатация булими бошлиги	Зангиота туман МТБ
Секретарь комиссии	TILLAYEVA MUNOJAT MAXMUDOVNA	Котиба	Зангиота МТБ
Член комиссии	TAGAYEVA ZIYODA AXMATDJANOVNA	Комиссия аъзоси	Зангиота МТБ
Член комиссии	JO'RAYEVA SHAXNOZA TO'RAYEVNA	Комиссия аъзоси	Зангиота МТБ
Член комиссии	NURMATOVA NAIMA SAYDALIYEVNA	бош хисобчи	Зангиота туман МТБ
Член комиссии	KARSHIBAYEV ALISHER DARVESHALIYEVICH	МУХАНДИС	Зангиота туман МТБ

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 11.11.2022 года № лота 176689.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 40

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Морковь столовая
Подробное описание	Сабзи 12 тонна захира қилиниши юзасидан Сара сабзи қуруқ, сўлимаган, касалланмаган, бутун, ёрилмаган тоза, ҳашарот тегмаган, шакли ва ўлчами бир хил, камида 2 см узунликдаги пояли бўлиши лозим. Сабзининг қўндаланг кесими диаметри 2,56,0 см келадиган бўлиши керак. Чириган, димиққан, яхлаган, бегона таъм ва ҳидли сабзиларни ишлатишга йўл қўйилмайди.
Количество товара	12 000.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	4 500.00
Стартовая сумма	54 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Ташкилот гувоҳномаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифи

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Жалолбек Азизбек" х.к.	25	25	12	Экспертная		
PRODUCT BUSINESS BARAKA MCHJ	25	Ташкилот гувоҳномаси	10	Экспертная		
GOVERNNESS BUSINESS MCHJ	25	1-Критерия	10	Экспертная		
MCHJ UNION Y-A	25	Критерия-1	20	Экспертная		
KELAJAK SARVINOZ FBM MCHJ	25	25	10	Экспертная		

Критерий №2 Солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги йўқлиги тўғрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифи

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Жалолбек Азизбек" х.к.	25	25	10	Экспертная		
PRODUCT BUSINESS BARAKA MCHJ	25	Солиқдан қарздорлик мавжуд эмас	10	Экспертная		
GOVERNNESS BUSINESS MCHJ	25	4-Критерия	10	Экспертная		
MCHJ UNION Y-A	25	Критерия-4	15	Экспертная		
KELAJAK SARVINOZ FBM MCHJ	25	25	10	Экспертная		

Критерий №3 Етказиб берилган товарнинг сифатлилиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифи

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Жалолбек Азизбек" х.к.	25	25	12	Экспертная		
PRODUCT BUSINESS BARAKA MCHJ	25	Ташкилотимиз томонидан тафсия этилаётган махсулотлар сертификатлари	12	Экспертная		
GOVERNNESS BUSINESS MCHJ	25	3-Критерия	10	Экспертная		
MCHJ UNION Y-A	25	Критерия-3	20	Экспертная		
KELAJAK SARVINOZ FBM	25	25	10	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
МСНЖ						

Критерий №4 Ташкилотнинг молиявий ахволи тўғрисида маълумот (Баланс)

Тип: Текстовое значение

Описание: Бюджетмачи тавсифи

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
Жалолбек Азизбек" х.к.	25	25	10	Экспертная		
PRODUCT BUSINESS BARAKA MCHJ	25	Баланс мажбурий булмаганлиги сабабли , Ходимлар хақида малумот жойлаштирилди	15	Экспертная		
GOVERNNESS BUSINESS MCHJ	25	2-Критерия	12	Экспертная		
MCHJ UNION Y-A	25	Kriteriya-2	25	Экспертная		
KELAJAK SARVINOZ FBM MCHJ	25	25	10	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
Жалолбек Азизбек" х.к.	54 000 000.00	53 328 000.00 UZS	53 328 000.00	00.00	53 328 000.00	08.11.2022 01:50:08	14.40144
MCHJ UNION Y-A	54 000 000.00	53 400 000.00 UZS	53 400 000.00	00.00	53 400 000.00	10.11.2022 03:24:03	14.38202
PRODUCT BUSINESS BARAKA MCHJ	54 000 000.00	46 668 000.00 UZS	46 668 000.00	00.00	46 668 000.00	09.11.2022 19:44:13	16.45667
GOVERNNESS BUSINESS MCHJ	54 000 000.00	54 000 000.00 UZS	54 000 000.00	00.00	54 000 000.00	10.11.2022 03:11:22	14.22222
KELAJAK SARVINOZ FBM MCHJ	54 000 000.00	38 400 000.00 UZS	38 400 000.00	00.00	38 400 000.00	10.11.2022 11:29:13	20

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл

Жалолбек Азизбек" х.к.	35.2	14.40144	49.60144
MCHJ UNION Y-A	64	14.38202	78.38202
PRODUCT BUSINESS BARAKA MCHJ	37.6	16.45667	54.05667
GOVERNNESS BUSINESS MCHJ	33.6	14.22222	47.82222
KELAJAK SARVINOZ FBM MCHJ	32	20	52

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 176689 от 11.11.2022 года на приобретение Сабзи захира определила победителем:

MCHJ UNION Y-A
308880371

и резервный исполнитель: PRODUCT BUSINESS BARAKA MCHJ (309620116)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	TOSHDJANOV BEKMUROD ASANOVICH	Согласен	
Член комиссии	TAGAYEVA ZIYODA AXMATDJANOVNA	Согласен	
Член комиссии	JO'RAYEVA SHAXNOZA TO'RAYEVNA	Согласен	
Член комиссии	NURMATOVA NAIMA SAYDALIYEVNA	Согласен	
Член комиссии	KARSHIBAYEV ALISHER DARVESHALIYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Тошкент вилоят Зангиота туман

Мактабгача таълим бўлими

Х.Эргашев

Зангиота туман Мактабгача таълим бўлими ташкилотлар ўртасида ўтказилган танлаш бўйича харид комиссиясининг йиғилиш кишиги захира учун сабзи 12 тонна харид қилиш

БАЁНИ

Зангиота тумани

16.11.2022 йил

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида” ги 684-сонли қонунига мувофиқ ва Зангиота туман Мактабгача таълим бўлимининг харид комиссияси таркиби:

Йиғилиш раиси: Б.Ташджанов

Давлат харидлари бўйича комиссия аъзолари:

1. А.Қаршибаев

2. З.Тагаева

3. Ш.Жўраева

4. Н.Нурматова

Йиғилиш котиби: М.Тиллаева

Давлат харидлари бўйича комиссия йиғилиш ўтказди.

КУН ТАРТИБИ

1. Зангиота туман Мактабгача таълим бўлими кишиги захира учун 12 тонна сабзи олиб олиш учун ўрнатилган тартибда шартнома тузиш.

2. Давлат хариди бўйича комиссиянинг 2022 йил 11 ноябрдаги №176689 –сонли электрон баённомасини муҳокама қилиш тўғрисида

Кўрилган масала: Комиссия раиси сўзга чиқиб раҳбарият томонидан 2022 йил 03.11-10.11.2022 йилда

22110012176689-сонли Лот билан кишиги захирага с абзи сотиб олиш учун Ўзбекистон хом- ашё биржасининг

электрон порталига эълон жойлаштирилганлиги ва эълон муддати тугагандан сўнг комиссия аъзолари томонидан

электрон баённома расмийлаштириб MCHJ UNION Y-A ғолиб деб аниқланганлиги айтиб ўтди.

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида” ги 684-сонли Қонунининг 62-моддаси 3-бандига асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Икки иш кун давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома бўйича ҳеч қандай эътирозлар ёки қўшимча таклифлар келиб тушмаганлиги таъкидлаб ўтилди ва комиссия аъзолари томонидан

ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

Юқоридагилардан келиб чиқиб ҳамда комиссия аъзоларининг 2022 йил 11 ноябрдаги электрон баённомасига асосан ғолиб MCHJ UNION Y-A билан Зангиота туман Мактабгача Таълим Бўлими кишиги захирага с абзи сотиб олиш қонунчилиқда ўрнатилган тартибда шартнома тузилсин.

Давлат харидлари бўйича комиссия аъзолари:

1. Б.Ташджанов

1. А.Қаршибаев

2. З.Тагаева

3. Ш.Жўраева

4. Н.Нурматова

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

NT1304233553

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: OOO UNION-Y-A MCHJ va maktabgacha ta'lim bo'limi o'rtasidagi **25-sonli shartnoma**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: ZANGIOTA TUMANI MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI tomonidan 14.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Zangiota tuman
yuridik markaz
bosh yuristkonsulti:



F.Y.XUDAYBERGANOVA

16.11.2022